



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;
Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;
Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;
Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;
Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori;
Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;
Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;
Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;
G'aybullayev Otobek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;
Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;
Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;
Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;
Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;
Salaxutdinova Musharrafa Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;
Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;
Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;
Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;
Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.;
Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;
Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;
Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Saydullayev Shaxzod Alihanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;
Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;
Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);
Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;
Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;
Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;
Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;
Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasilisa Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich -siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich – siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 9-son (sentyabr, 2025). - 198 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li</i>	
THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA: THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS	9-13
<i>Xurramov Xamid Bobokul o'g'li</i>	
AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN?	14-18
<i>Zikirova Maxprat Soliyevna</i>	
HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI	19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА	26-38
<i>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</i>	
ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI	39-46
<i>Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna</i>	
OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES IN TEXTILE ENTERPRISES	47-52
<i>Shixiyev Raxim Muhammedovich</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	53-60
<i>Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna</i>	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI	61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Navro'zova Gulchehra Nigmatovna</i>	
BAHOUDDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI	67-70
<i>Yuldasheva Diloram Yuldashevna</i>	
O'ZBEKİSTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI	71-74
<i>Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich</i>	
ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI	75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Ayimbetova Zamira</i>	
BADIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH VA TASNIFFLASHNING NAZARIY ASOSLARI	81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i>	
ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLARI	88-92
<i>Petrosyanç Эрнест</i>	
СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i>	
NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i>	
ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Firuza Muxitdinova</i>	
JAMIyat BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILIY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i>	
NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i>	
IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i>	
FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIYY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i>	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i>	
ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNING QONUN İJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i>	
JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i>	
NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i>	
VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO
TA’SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

09.00.00 - FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 15 August 2025

Accepted: 30 August 2025

Published: 15 Ceptemper 2025

Article / Original Paper

THE PROBLEM OF VASL IN THE RUBAIY OF BAHAUDDIN NAQSHBAND

Navruzova Gulchekhra Nigmatovna

Professor, Doctor of Philosophy,

Department of Social Sciences and Physical Education,
Bukhara Technical University

Abstract. The article analyzes the content and essence of the concept of vasl in the rubies of Bahauddin Naqshband on the basis of sources.

Keywords: Bahouddin Naqshband, ruboiy, vasl, visol, do'zax, bihisht.

BAHOUDDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI

Navro'zova Gulchehra Nigmatovna

Buxoro texnika universiteti

"Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasi professori,
falsaфа fanlari doktori

E-mail: premium.progress@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Bahouddin Naqshband ruboiylarida vasl tushunchasining mazmun-mohiyati manbalar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Bahauddin Naqshband, Rubaya, wasl, visol, hell, paradise.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N09>

Kirish. Insoniyatga in'om etilgan eng ulug' ne'matlardan biri mehr va muhabbatdir. Butun borliqqa muhabbat tinchlik, xotirjamlik, ahillik, farovonlik, birdamlikning asosidir. Muhabbat asosiy falsafiy kategoriya bo'lib, uning mazmun-mohiyati vasl, visol, ishq, oshiq kabi tushunchalar orqali bayon etiladi. Muhabbat majoziy va haqiqiy -ilohiyga bo'linadi. Ilohiy muhabbat butun borliqqa bo'lgan muhabbatning asosidir. Bunga sabab butun borliq Ollohnning jamoli va jalolini tajalli etadi. Mustaqillik davrida yangicha yondashuvlar asosida ilmiy muomalaga kiritilayotgan tasavvuf falsafasida ilohiy muhabbat masalasi yaxshi va keng yoritilgan. Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun insonlar orasida mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish lozim. Bu masalani yoritishga xizmat qiladigan tasavvufiy mazmundagi ruboysiarni o'rganish dolzarbdir. Tasavvufning Naqshbandiya ta'limotining asoschisi Bahouddin Naqshband nomi bilan mashhur Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (1318-1389) ruboysiarni o'rganish va tahlil etish falsafadagi muhabbat kategoriyasini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Barcha asrlarda shoir-u yozuvchilar muhabbat masalasini tarannum etganlar. She'riyat mulkining sultonni hazrat Alisher Navoiy yaratgan

Farhod va Shirin, Layli va Majnunlar muhabbati ilohiy ishqning timsolidir. Naqshbandiya ta'limotiga oid manbalar[1,4,5,22,24,26] va tadqiqotlarda ilohiy muhabbatning asosiy tushunchasi vasnga e'tibor berilgan. Naqshbandiya ta'limotiga oid monografiyalar[8,9,21], Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyatini yorituvchi asarlar[11,15], risola[10,23] va maqolalarda[12-15] u kishining ruboilyari haqida qisqa ma'lumotlar berilgan. Izlanishlarimiz natijasida. Bahouddin Naqshband ruboilyari to'plangan va sharh etilgan "Ruboiyoti Xoja Naqshband" [1,3] asari borligini aniqladik. Bu ruboilyarni mazmun-mohiyatiga qarab imkon doirasida tahlil etdik[16-20]. Bahouddin Naqshbandning vasl tushunchalariga oid ruboilyarini germenevtik yondashuv asosida tushunib, anglab tushuntirishga harakat qildik.

Muhokama va natijalar. Vasl tasavvufiy mazmundagi ilohiy ishq tushunchasiga mansub bo'lgan asosiy kategoriyadir. Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul tartibga keltirgan lug'atda vasl tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Vasl – yetishish, erishish, vosil bo'lish, Haq visoliga yetishmoq. Vasl yoki vuslat tasavvufiy hayotdagi yo'lchilikning natijasiga aloqadordir. Tasavvufda ma'shuqi azal bilan qovushmoq, o'zlikdan kechib Haqqa yor bo'lmoq, vahdat zavqi" [25:215]. So'fiylar vasl masalasiga turlicha yondashadilar. Ba'zilari inson ko'zi oldidagi hijoblar ko'tarilib, Haqning jamol-u jalolini ko'rishni vasl desalar, boshqalari inchunin naqshbandiyalar ham butun borliqda Ollohnning zotu sifoti tajallli etadi deydilar.

"Ruboiyoti Xoja Naqshband" asarida Bahouddin Naqshbandning ruboilyari fors tilida arab grafikasida yozilgan va urdu tilida Muhammad Sodiq Qusuriy tomonidan sharh etilgan[1]. Biz tadqiqotlarimiz davomida ruboilyarni kirill alifbosiga o'girib, ilm ahliga tushunarli tilda nashr etdik[3]. Manbada 67 raqam bilan belgilangan quyidagi ruboiyda ilohiy ishq va vasl masalalari yoritilgan:

دل وصل تو هر کسل میخواهد

ایام وصال متصل میخواهد

مصود من از خدای باشد وصلت

امید چنان شود که دل میخواهد

Dil vasli Tu har kasal mexohad,

Ayomi visol muttasil mexohad.

Maqsudi man az Xudo boshad vaslat,

Umid chunon shavad, ki dil mexohad[1:109].

Mazmuni:

Har bir kasal qalbi Seni vaslingni istaydi,

Visol ayyomini muttasil istaydi.

Xudodan meni maqsadim Sening vaslingdir,

Umid shunday bo'lurkim, qalb istaydi.

Bahouddin Naqshbandning bu ruboysiда qalb Olloh vaslini va bu visol ayyomini muntazam doimiy bo'lishini istashi yozilgan. Forsiy tilda Ollohga munojot qilganda Xudo tushunchasi ishlataladi. Ruboiyda yozilishicha Xudo deyishdan maqsad Ollohnning vaslidir. Bu ruboiy umid va qalbdagi niyatning o'zaro uyg'unligini aks ettiradi. Qalbda tug'ilgan niyat va istakkha uyg'un insonda umid paydo bo'ladi.

Bahouddin Naqshbandning yuqoridagi ruboilyari to'plangan manbada 69 raqamli ruboiyda ham ilohiy muhabbat tavsif etilgan:

در دوزخم ار زلف تو در چنگ آمد

واز حال پریشان ما تنگ آمد

**گр бўи то бенгари беҳштм ҳоанд
бенгари беҳшт бр дл ма тнг آمد**

Dar dýzaxam ar zulfi Tu dar chang omad,
V-az holi pareshoni mo tang omad.
Gar be Tu ba sahroye bihishtam xonand,
Sahroi bihisht bar dili mo tang omad[1:111].

Mazmuni:

Do'zahdaman Sening zulkingdan chang keldi,
Bizning parishon holimiz tang keldi.
Sensiz agar behisht sahrosiga chaqirsalar,
Bihisht sahrosi bizni qalbimizda tor keldi.

Bahouddin Naqshbandning bu ruboysi vasl tushunchasini o'ziga xos tavsif etmoqda. Inson do'zaxda bo'lsa-yu ilohiy zulfdan bir chang kelganda ham oshiqning holi o'zgaradi. Agar bihishtda Olloh bo'lmasa, bu jannat makoni Oshiq qalbiga sig'maydi. Ilohiy ishq kuychisi Robiya Adaviya aytganidek, Olloh vaslini istaydigan oshiq uchun jannat va do'zax emas Olloh jaloli kerak.

Manbadagi 70 raqamli Bahouddin Naqshband ruboysida ilohiy muhabbatning vasl tushunchasi quyidagicha vasp etilgan:

غم از نظر تو شادمانی گردد
عسر از تو حیات زندگانی گردد
گر باد بدوزخ برد از کوی تو خاک
آتش همه آب و زندگانی گردد

G'am az nazari Tu shodmoni gardad,
Usr az Tu hayoti zindagoni gardad.
Gar bod ba dýzax barad az kyi Tu xok,
Otash hama obu zindagoni gardad[1:112].

Mazmuni:

G'am Sening nazaringdan shodmonlikka aylanadi.
Usr – mushkullik Sendan yashashimizdag'i hayotga aylanadi.
Sening ko'yingdan shamol do'zaxga gar tuproqni etsa,
Olov hammasi yashash suviga aylanadi.

Bahouddin Naqshband fikricha, ilohiy vaslga yetishgan oshiq uchun Olloh nazaridan g'am shodlikka aylanadi. Usr arab tilidan olingen so'z bo'lib, og'ir ahvol, mushkullik, qiyinchilik ma'nosini anglatadi[7:626]. Ruboiyda Olloh taqdirida belgilangan usr, ya'ni mushkullik, qiyinchiliklarning siri bo'lib, ularga rozi bo'lish tiriklikning manbasi bo'lgan hayotga aylanadi. Ilymon tushunchasida taqdirdagi yaxshilik va yomonlik Ollohdan ekanligi belgilangan. Ollohga muhabbat bilan Bahouddin Naqshband ruboiyda ta'kidlamoqdalarki, Uning ko'yidan shamol do'zaxga turoqni etsa, do'zaxdagi barcha olov hammasi insoniyat uchun yashash suviga aylanadi.

Xulosa. Yuqorida tahlil etilgan Bahouddin Naqshbandning ruboysi lar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- 1.Tasavvuf ahli uchun Olloh rizoligi va uning vasliga yetish asosiy maqsaddir.
- 2.Butun borliq Olloh tomonidan yaratilgani uchun tasavvuf ahli borliqda Uning qudrati, quvvati, jamoli va jalolini ko'rib mehr-u muhabbat bilan munosabatda bo'ladilar.

Adabiyotlar/Литература/References:

- ریاعیات خواجه نقشبند مرتب و شارح محمد قصوری اردو بازار لاهور الدینیہ پبلیکیشنز ۱۹۹۸ ۱۸۴ صحفه
2. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband / Forsiyidan tarjimon, so'z boshi, izoh va lug'at muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 335 b.
 3. Bahouddin Naqshband. Ruboilar. Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2023 – 84 b.
 4. Bahouddin Naqshband. (Manbalar tahlili). To'plab nashrga tayyorlovchi, maqola, izoh va sharhlar muallifi. G. N. Navro'zova. T.: "Sano standart" nashriyoti, 2019. 256 b.
 5. Bahouddin Naqshband. Hikmatli so'zlar. Bahouddin Nakshband. Words of wisdom. Hikmatli so'zlarni to'plovchi va maqolalar muallifi. G. N. Navro'zova, Hikmatli so'zlarni ingliz tiliga tarjima etuvchi Z. Rasulov. "Sadreddin Salim Buxoriy". "Durdona" nashriyoti. 2020. 52 b.
 6. Donishmandlar tuhfasi. Ruboilar. Toshkent: "O'zbekiston", 2009.277-278.
 7. Navoiy asarlari lug'ati. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent – 1972. 782 b.
 8. Navro'zova G.N. Naqshbandiya tasavvufiy ta'lomi va barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 233 b.
 9. Navro'zova G.N. Naqshbandiya – kamolot yo'li. – Toshkent: Fan, 2007. – 189 b.
 10. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband. (Risola). T.: "ABU MATBUOT-KONSALT" nashriyoti, 2011. 24 b.
 11. Navro'zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. – T.: Fan, 2021. – 244 b.
 12. Navruzova G.N. Bahauddin Naqshband – the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (Maxsus son), 2020. 5-8-b.
 13. Navro'zova G.N. Shukronalik – inson kamolotining asosi. //Imom Buxoriy saboqlari. 2023. №3. 121-123-betlar.
 14. Navro'zova G.N. Naqshbandiya ta'lomitida rizo tushunchasi. //Islom tafakkuri. 2022. 2-son. 39-46-betlar.
 15. Navro'zova G.N. Buxoroi sharifning yetti piri halol tushunchasi xususida. // Imom Buxoriy saboqlari. 2022. 4-son 51-52-b
 16. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ruboilarida insonni ruhiy muvozanati masalasi. Interpretation and researches. Volume 1 issue 22. 30.12.2023. p.171-176.
 17. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ta'lomitida suhbat tushunchasi. Interpretation and researches. Volume 2 issue 1(23). 30.01.2024. p.19-22.
 18. Navro'zova G.N. Naqshbandiya: Naqshdan benaqsh sari yo'l. Interpretation and researches. Volume 2 issue 8(30). 10.05.2024. p.219-225.
 19. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ma'naviy merosining yangi qirrasi. //Islom tafakkuri. 2024. 1-son. 3-7 betlar.
 20. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ruboilaridagi inson tushunchasining falsafiy tahlili. // Islom tafakkuri. 2024. 2-maxsus son 49-53-b.
 21. Navro'zova G.N. Naqshbandiya – hushyorlik yo'li. T.: Fan, 2024. 184 b.
 22. Risolahoi piron va payravoni tariqati Naqshbandiya. Dushanbe: 2017. 456 b.
 23. Sayfiddin Sayfulloh. Hazrati Naqshband ruboilar. Toshkent: "Toshkent islom universiteti" – nashriyot-matbaa birlashmasi. 2009. 20 b.
 24. Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriy.(1410) Anis at-tolibin va uddat as-solikin. Buxoro muzeyi 27772/11 qo'lyozma 168 v.
 25. Tasavvuf istilohlari sharhi / Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot T.: "Movarounnahr ", 2004.208-261.
 26. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot ("Obihayot tomchilari"): tarixiy-ma'rifiy asar / Tabdil qiluvchilar, nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, B.Umrzoq. Mas'ul muharrir: B.Umrzoq (O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti). – T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).